

QIMMATBAHO MASKAN

Toxirova Zebo

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi

Geologiya va geografiya bo'limi

Yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Geologiya fani tarixi va uning tarmoqlari haqida ma'lumot berilgan. Shunga ko'ra geologiyaga oid ilmlarni yoshlarga targ'ib qilish va ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish to'g'risida g'oya ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *Tabiat, geologiya, odamzod, yer, qushlar, muzey, tog' jinslari, minerallar, hayvonlar.*

Tabiat... Odamzod uchun berilgan eng yuksak mukofot .Yer yuzidagi qushlar, daraxtlar, giyohlar-u o't o'lanlar, hayvonlar-u qurt-qumursqa hasharotlar, bularni sanab tugatolmaysan kishi. Bularning barcha barchasi insoniyat uchun hizmat qilib charchashmaydi go'yo. Tabiatga nazar soladigan bo'lsak, nafaqat yer yuzi balki, yer qa'ridagi mittigina toshning ham biz uchun o'rni beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Insoniyatga foydasi tegadigan toshlarni, ya'ni tog' jinslarini geologlar mashaqqatli mehnatlari bilan topib, foydalanishga topshirishlari barchamizga ma'lum. Geologlar o'zi kimlar? Geologiya o'zi qanday fan? Geologiyaga oid ma'lumotlarni qayerdan olsak bo'ladi?

“Geologiya” so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib “geos” yer va “logos” ta'limot, so'z degan ma'noni anglatadi, ya'ni yer haqidagi ta'lim, yer haqida so'z ma'nolarini ifodalaydi. Geologiya atamasi Norvegiyalik olim M.Esholt tomonidan 1657-yilda kiritilgan. Shunga ko'ra geolog foydali qazilma konlarni qidirish, tog' jinslarining tarkibini o'rganuvchi mutaxassis hisoblanadi. Geolog kasbi ishlab chiqarish muammolarini hal qilish va tabiiy obyektlar va qonuniyatlarini o'rganish, ulardan amaliy foydalanish imkoniyatlarini chambarchas bog'laydi. Fan texnika taraqqiyoti kundan kunga jadallashib borayotgan hozirgi kunda aholimiz turmush tarzini yurtimiz geologiya xizmatlarining yutuqlarisiz tasavvur etish juda qiyin. Birgina misol, ko'chalarda to'xtovsiz o'tayotgan avtomobillar oqimiga nazar tashlasak. Ular yoqilg'i yordamida harakatga keladi. Endi o'ylab ko'raylik avto yoqilg'i yo'qligi sabab mashinalarning harakati cheklanishi, elektr toki yo'qligi sabab shinam xonalarimizni zimistonga aylanishi yoki tabiiy gaz bo'lmaganligi uchun uy isitish yoki ovqat tayyorlash kabi yumushlarda insonlarni qiynalishlarini, bu resurslarsiz go'yo hayot to'xtab qoladigandek tuyuladi. Insoniyat uchun nafaqat yo'qlig'i vositalari balki, inson organizmi uchun zarur bo'lgan rang-barang minerallar hayot uchun zarurdir. Uzoq o'tmishga nazar solsak odamlar temir, mis va oltin kabi sof metallar qatori qalay, mis birikmalariga boy rudalarni ham topa bilganlar. Shu bilan birga ular yerning, tog' jinslarining hosil bo'lishi quruqlik va dengizlarning tarqatish masalalarini hal etishga ham uringanlar. Miloddan avvalgi 6-5-asrlarda tog' tepalarida dengiz molluskalarining toshqotgan chig'anoqlari

topilgan. Strabon yer doimiy o'zgarishda, harakatda bo'lib goho ko'tarilgan va orollar, qit'alar yuzaga kelgan, goho qaytadigan cho'kkan digan fikr yuritgan. Mashhur yunon faylasufi Fales atrofdagi hamma narsalar suvdan hosil bo'lgan va so'ngra qaytadan suvga aylangan deb hisoblagan. Geologiya 18-asrning 2-yarmida fan sifatida shakllandi. Rus olimi H.V.Lomonosov "yer qatlamlari" haqida 1763 – yilda tabiatning qonuniy evolyutsiyasi g'oyasini ilgari surdi. Shotlandiyalik geolog Getton "Yer nazariyasi" (1788) kitobida yer tarixini kontinentlarning yo'q bo'lishi va yana kontinentning vujudga kelishini to'xtovsiz takrorlanuvchi sikllardan iborat deb tasvirlagan. Bir so'z bilan aytganda Geologiyani qadimiy va zamonaviy fan sifatida bilishimiz lozim. Yoshlarimizni ham aynan shu sohada bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida fanga oid bo'lgan ilmiy kitoblarni ko'proq tavsiya etishimiz lozim. Bundan tashqari yurtimizda bir qator muzeylar ham mavjud. Birgina O'zbekiston davlat tabiat muzeyining o'zida geologiya sohasiga oid juda ko'plab tog' jinslari va minerallari mavjud. Shulardan 1928 tasi geologik na'munalar, 363 tasi pollantalogik na'munalar hisoblanadi. Muzeyda respublikamizning ma'danli va foydali qazilmalari ko'rgazmasi, ma'danlarning na'munalari va ularning turli shakllari ko'rsatishdan boshlanadi. Foydali qazilmalar, ma'danlar, rudalar va minerallar haqida juda ko'plab ma'lumotlar haqida ko'nikmalar hosil bo'ladi. Shu bilan birga geologik o'zgarishlar tarixi va yerda hayotning rivojlanishi odam evolyutsiyasi, pitekantropalar, neandertallar, sinantropalar haqida ham bilimlar mustahkamlanadi. Bundan tashqari muzeyda imkoniyati cheklangan yoshlar hamda nuroniy insonlar uchun ham zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilgan. Ular ham tabiat bizga in'om etgan, ammo yer yuzida juda kam tarqalgan yoki yo'qolib borayotgan tog' jinslarini, minerallarni hamda kamyob moddalarni, paleantalogik namunalarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Muzey xodimlari esa eksponatlar haqida yoshlarimizga juda ko'plab ma'lumotlarni ulashadilar. Bir so'z bilan aytganda qimmatbaho maskanga tashrif buyurgan inson qimmatli bo'lgan bilimlarni o'zi bilan birga olib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – Toshkent: Fan, 1981
2. G'ulomov YA. O'zbekistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, o'rganish yo'llari. – Toshkent-1934
3. Narzulla Jo'rayev, Akbar Zamanov. "O'zbekiston tarixi" (Mustaqillik davri). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf uchun darslik. Toshkent- 2018
4. U. Jo'rayev, Q. Usmonov, A. Nurqulov, G. Jo'rayeva. "Tarixdan hikoyalar". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent- 2020
5. N. N. Xabibullayev. O'zbek muzeylarining istiqboli. Moziydan sado. 1999 № 1